

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” DA RANGLAR SEMANTIKASI**Ro‘ziyeva Mohichehra Yoqubovna,**

*Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
E-mail: moxichexra.ruziyeva1981@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Devonu lug‘otit turk asarida ranglar semantikasi, ularning qadimgi turkiy til tizimidagi lug‘aviy va ma‘noviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Rang nomlarining shakllanishi, qo‘llanish doirasi hamda turli predmet va hodisalarni nomlashdagi o‘rni misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, ranglarning inson tashqi ko‘rinishi, ruhiy holati, kiyim-kechak, oziq-ovqat, hayvon va o‘simlik nomlari, geografik joylar, qazilma boyliklar, tabiat hodisalari va davlat ramzlari bilan bog‘liq holda qo‘llanishi ko‘rsatib berilgan. Maqolada ranglar qadimgi turkiy xalqlarning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy hayotida muhim semantik vosita sifatida xizmat qilganligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: rang semantikasi, rang nomlari, qadimgi turkiy til, leksik birlik, rang ramziyligi, rang tasnifi, lug‘aviy ma‘no, madaniy semantika, ranglarning qo‘llanishi, turkiy tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматривается семантика цветов в произведении Devonu lug‘otit turk, а также их лексические и смысловые особенности в системе древнетюркского языка. Анализируется процесс формирования цветowych наименований, сферы их употребления и роль в обозначении различных предметов и явлений. Особое внимание уделяется использованию цветowych обозначений при описании внешности человека, его психоэмоционального состояния, одежды, продуктов питания, животных, растений, географических объектов, природных явлений и государственных символов. В статье показано, что цветowych обозначения занимали важное место в мировоззрении, культуре и языковом мышлении древнетюркских народов.

Ключевые слова: семантика цвета, цветowych наименования, древнетюркский язык, лексика, символика цвета, классификация цветов, культурная семантика, языковая картина мира, тюркское языкознание.

Annotation. This article examines the semantics of colors in the work Devonu lug‘otit turk and analyzes their lexical and semantic features within the system of the Old Turkic language. The formation of color terms, their usage domains, and their role in naming various objects and phenomena are discussed through illustrative examples. The study also highlights the use of color terms in describing human appearance, psychological states, clothing, food items, animals, plants, geographical names, natural phenomena, and state symbols. The article demonstrates that color terms functioned as an important semantic and cultural tool in shaping the worldview, cognition, and linguistic culture of ancient Turkic peoples.

Keywords: color semantics, color terms, Old Turkic language, lexical units, color symbolism, classification of colors, cultural semantics, linguistic worldview, Turkic linguistics.

Kirish. Ranglar xalq tafakkurida oddiy tasviriy vosita sifatida emas, balki ijtimoiy, diniy, mifologik va estetik mazmuni ifodalovchi belgilar tizimi sifatida qaralgan. Rang ramzlarining genezisi insoniyat tafakkurining dastlabki davrlariga borib taqaladi. Qadimgi jamiyatlarda ranglarning amaliy ahamiyati bilan bir qatorda, ular muayyan ramziy va marosimiy vazifani ham bajargan. Turkiy xalqlarining dunyoqarashi va madaniy merosining o‘ziga xosligini belgilovchi etnik hamda etnopsixologik kod belgilar sifatida ko‘k (osmoniy), yashil va oq ranglar namoyon bo‘ladi. Ushbu ranglarning ramziy ma‘nosi nafaqat umumturkiy, balki jahon adabiyoti kontekstida ham tadqiq etiladi. Insonlarning ranglar haqidagi dastlabki bilim va tushunchalari mifologik tasavvurlar, qadimgi diniy

e'tiqodiy qarashlar, ijtimoiy-madaniy hayot, urf-odat va marosimlar bilan aloqador murakkab jarayonlarni o'zida mujassam etadi. Jumladan, ibtidoiy odamlarning animistik, totemistik, fetishistik, magik qarashlarida ranglarga inonch va e'tibor alohida o'rin tutadi. Ranglarning magik kuchiga ishonish, ularni magik himoya vositasi deb qarash barcha xalqlar o'rtasida mavjud. Bu xil e'tiqodiy qarash izlarini yer yuzida umrguzoronlik qilayotgan barcha qabila, elat, xalqlarning marosimlari, folklori va ko'hna san'at namunalari kuzatamiz.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek folklorshunosligida ranglarga taalluqli ramziylik belgilari yaxlit holda maxsus tadqiq etilgan emas. Ammo bu borada M.Alaviya, S.Ro'zimboev, X.Egamov, A.Musaqulov, M.Jo'raev, M.Yoqubbekova, Sh.Turdimov, D.O'raeva, J. Eshonqul, K.Mustaev, S. Mirzaeva, D.Fayzieva, I. Boltaeva, O.Ismonova, N.Sabirova, M.Jo'raeva, Sh.Imomnazarova, F.Abdiraxmanovalarning ilmiy izlanishlarida ba'zi mulohazalar bildirib o'tilgan. Jumladan, M.Alaviya birinchi bo'lib ranglarning o'zbek xalq qo'shiqlaridagi, ayniqsa, to'y marosimi aytimlaridagi badiiy-timsoliy mohiyatiga munosabat bildirgan bo'lsa, M.Yoqubbekova ranglarning o'zbek xalq qo'shiqlarida sifatlash bo'lib kelishi haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. X.Egamov o'zbek xalq ertaklarida ranglar simbolikasining qo'llanishi masalasida o'z qarashlarini aytib o'tgan. S.Ro'zimboev tadqiqotlarida ranglarning xalq qo'shiqlarida parallelizm san'atini yuzaga keltirishda qiyosiy manba bo'lib kelishi hamda ularning Xorazm dostonlaridagi poetik o'rni va vazifasi alohida o'rganilgan. Shuningdek, D.O'raevaning o'zbek xalq qo'shiqlarida parallelizmlarning badiiy-kompozitsion vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan nomzodlik ishida ham bu haqda to'xtalib o'tilgan. D.O'raeva yana o'zbek motam marosimi qo'shiqlarida rangga aloqador ramzlarning qo'llanishini, ularning sifatlovchilik xususiyatini, lirik qahramonning kayfiyatini va o'limga munosabatini ifodalashdagi poetik vazifasini o'rganishga e'tibor qaratdi.

Sh.Turdimovning "Xalq qo'shiqlarida ramz" saylanma kitobida rangga aloqador ramzlar to'g'risida birmuncha chuqurroq mulohaza yuritilgan.

Tahlillar va natijalar. Qadimdan ranglardan foydalanishning hayotiy asoslari keng bo'lgan. Qadimgi ajdodlarimiz ranglarga katta e'tibor qaratishgan. Ularning darajalanishiga ham ahamiyat berishgan. Masalan, qadimgi noyob yozma manbalardan biri bo'lgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" kitobida "o'n" va "menzi" so'zlari – rang ma'nosida sinonim sifatida qo'llanganligi haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, unda "jashil o'n ton" – "yashil rang to'n" ma'nosida qo'llanganligi bildirilgan. Bunda "o'ngibdi" – so'zi "rangi ketibdi" ma'nosini ifodalagan bo'lib, bu so'z hozir ham ishlatiladi. Ba'zan u "uniqibdi" shaklida uchraydi. Yoki "rangsizlanmoq" tushunchasi "anin menzi ag'di" – "uning rangi o'zgardi" tarzida ishlatilganligi kuzatiladi. Xullas, o'ndi, menzi so'zlari – rangi ketdi, o'zgardi, aynidi ma'nolarida o'zaro ma'nodoshlik hosil qiladi. "Asardi" so'zi esa ularga zid ma'noli lug'aviy birlik bo'lib, aksincha "rang keltirdi", "rang oldi" ma'nolarini bildiradi. Masalan, "tasqi asardi uzum" deganda,

uzumning rang olganligi anglatiladi. Umuman, bu soʻz qadimgi turkiy tilda xom mevalarning rang olishini anglatadi. Biroq undan insondagi ruhiy vaziyatning oʻzgarishini ifodalashda ham foydalanganlar: “Anin kozi asardi” – “uning koʻzi olaydi” tarzida. “Onlandi” soʻzi “asardi” soʻzining sinonimi boʻlib, u ham rang keltirdi, rang oldi, oʻnglandi maʼnolarini ifodalaydi. Bu soʻz koʻproq uzoq kasallikdan soʻng oyoqqa turib, rangi kirgan kishiga nisbatan qoʻllanadi. Bularan tashqari, “Devonu lugʻotit turk” kitobida “juvut” soʻzi ham rang tushunchasini anglatgan. Bu soʻz ranglarning hammasi uchun umumiy nomni ifodalaydi. Shuning uchun koʻpincha unga ayrim ranglarni anglatuvchi soʻzlar qoʻshilib, birikma holda ishlatilgan: qizil juvut – qizil rang, qizil boʻyoq; al juvut – malla rang”, kök juvut – toʻq koʻk; jashil juvut – yashil rang yoki zangori; sarigʻ juvut – zirnix rang kabi. Qadimgi turkiy tilda “tu” soʻzi ham rang tushunchasini anglatgan. “Tudash” soʻzi – rangdosh, bir xil rangli maʼnolarida qoʻllanilgan[5.345].

“Devonu lugʻotit turk” kitobi orqali qadimgi ajdodlarimiz quyidagi rang nomlaridan foydalanganliklarini bilib olish mumkin: a:rlen (qoʻngʻir rang), aj (toʻq sariq rang), qizil (qizil), arsal (qizilga moyil), oram (toʻq qizil va sariq rang orasi), qara (qora), a:q yoki orun (har bir oq narsa), ola, kök (koʻk), kokshin nen (osmon rangli har narsa), sarigʻ (sariq), a:l (toʻq sariq, yaʼni apelsin rang), qonur: (rangni biron narsaning rangiga qarab nomlab qoʻyish), jagʻiz (qizil bilan qora oʻrtasidagi bir rang, yer rangi shunga oʻxshatib, jagʻiz jer deyilgan), jashil, bajin (toʻq qizil), jinkil (argʻuvon rangi), boʻz (kulrang) va hokazo. “Devonu lugʻotit turk”dan ranglarning darajalanishini ifodalovchi qoʻshimchalar haqida ham maʼlumot olsa boʻladi. Unda oʻp// up – rang haqidagi qadimgi oshirish qoʻshimchasi ekanligi, u “up-oʻroʻq”, yaʼni “juda oq, oppoq” tarzida ishlatilganligi maʼlum qilinadi. Narsalarning rangini tavsiflashda soʻzning bosh harflarini olib, unga “b” qoʻshilishi qator turkiy tillar uchun xosdir. Oʻgʻuzlar esa “b” bilan emas, “m”ni qoʻshib, koʻkni koʻm-koʻk; sariqni sam-sariq tarzida ifodalab, ortirma darajadagi sifatlarni atab keladilar. “Toʻm” soʻzi mol, hayvonlar rangini aniqlashda “toʻq” maʼnosini berish uchun qoʻllanilgan soʻzdir. Jumladan, toʻm qara at – tim qora ot, juda qora, tiniq qora ot tushunchasini anglatadi. Toʻq koʻk rangli narsalarga köp-kök soʻzi ishlatilgan. Ranglar qadimgi insonlar tomonidan, avvalo, dunyodagi mavjud narsalarning turini ajratib koʻrsatish, farqlash, olamning turfaligini bildirish maqsadida qoʻllangan. Shuning uchun ranglarning qadimdanoq narsa-hodisalarning koʻrinishlariga, insonlarning irqiga, hatto fasllaru hafta kunlariga, kiyim-kechaklaru oziq-ovqatlarga, hayvon va oʻsimlik turlarigayu joy nomlariga nisbatan qoʻllanilganligini kuzatish mumkin. Shunga qarab, qadimda ranglarning qoʻllanishini “Devonu lugʻotit turk” misolida quyidagicha tasniflab koʻrsatsa boʻladi:

1. Insonlarning yuz koʻrinishi va tana aʼzolari ranglar bilan aloqadorlikda qizil an – qizil yuz yonogʻi; etrak – rangi sariq odam (oʻgʻizcha); a:q saqol er – oq soqol, soch-soqoli oqargan kishi (oʻgʻuzcha); orun – yosh bolalarning tirnoqlarida boʻladigan oq nuqta (uni

“tirinaq oruni” deyishgan); chaqir – ko‘k ko‘z, chog‘ir ko‘z; meniz yoki mag‘iz – odam rangi, qizil menizlig – qizil mag‘iz odam (bu o‘rinda ushbu so‘z yuz yonog‘i qizilligiga nisbatan qo‘llangan); sariq o‘t, ya‘ni safroga – sarig‘ deyilgan; qara qaroq – qo‘zning qorasi, urun qaraq – ko‘z oqi, ot qaraq – ko‘z qorachig‘i; opka (o‘pka) – oq jigar, sulaq yoki taloq – qora jigar (qipchoqcha); arsal sach – qizilga moyil soch ma‘nolarini ifodalab kelgan. Bunday tushunchalar qadimgi qo‘shiqqlar bag‘rida ham uchraydi:

Bulnar meni ulas koz,
Qara meniz qizil jo‘z
Andin taslar tuka tuz,
Bulnap jana ol qacha[4.123].

Mazmuni: Mastona ko‘zli, porloq va ko‘rkam yuzida yoqimli qora xoli bor go‘zal xuddi yonoqlaridan shirinlik tomayotganiday meni asir qildi-da, qochdi. Bunday ishqiy mazmundagi qo‘shiqqlarda ranglar anglatgan ramziy ma‘nolar orqali yor (ma‘shuqa)ning go‘zalligi tasvirlangan.

2. Odamlarning yashash joyi, irqi, urug‘i va nasl-nasabiga ko‘ra ranglar bilan bog‘liq nomlari bo‘lgan. Aytaylik, oddiy xalq “qara bodun” deb yuritilgan. Erkak va ayol qullarga “qarabosh”lar deyilgan. Shuningdek, Bug‘ra qara haqan (hoqon), qora jig‘ach urug‘i nomlari qadimda mashhur bo‘lgan.

3. Insonlar ruhiy holati ifodasida ham ranglardan foydalanish an‘anasi qadimiyligi kuzatiladi: Beglar atin arg‘urur, Qazg‘u ani turg‘urub, Menzi juzi sarg‘arib, Ko‘rkum anar to‘rtulur. Afrosiyob o‘limiga achinib kuylangan bu marsiyada mangu judolik qayg‘usidan beklarning ozib, yuzlari xuddi za‘faron surgandek juda sarg‘aygani bildirilmoqda. Qara tunug kechursadim, Ag‘ir uni uchursadim. Jemikanig qachursadim, Aqish ichra kunum tug‘di. Qo‘shiqda qorong‘i kechada uyqusi qochgan qahramon tong otishini intizorlik va sabrsizlik bilan kutib, zerikkanidan ermak uchun yetti qaroqchi yulduzining aylanishini bir necha marta sanab chiqadi. Nihoyat, kun yorishib, quyosh yuz ko‘rsatadi-yu uning qalbi ham yorishadi.

4. Atg‘aq – qorinda sariq suv yig‘ilishi; ala yoki ola – pes, ya‘ni tanaga oq dog‘larning toshishi; isirkandi – qizilcha toshishi; sarig‘ kezik – sariq kabi kasalliklar nomida rangga aloqadorlik ko‘zga tashlanadi. Qora bosmoq tushunchasi bosinqirash holatini anglatadi.

5. Kiyim turlariga qo‘llanilganligi. Masalan, aj - to‘q sariq rangdagi bir ipak kiyimlik; a:l – to‘q sariq (ya‘ni apelsin) rangdagi ipak kiyimlik; a:z yoki a: s – oq susar po‘stin tushunchasini ifodalaydi. Bunday ifodalar qadimgi folklor namunalarida ham uchraydi: Qilnu bilsa qizil kizar, Jaranu bilsa jashil kizar. Keltirilgan maqolda xotinlar eri bilan suhbat istaganda qizil ipakni kiydi, yalinish va xushomadgo‘ylik vaqtida yashil kiyim kiyadi, deyilgan. Xotinlar haqidagi bu maqol maqsadga erishish, yoqimli muomalada bo‘lishni eslatish maqsadida aytiladi. Mazmunan shu maqolga yaqin bo‘lgan boshqa maqolda: “Qiyanu bilca, qezil kezar, jaranu bilsa, jashyol kezar” deyiladi. Buning

ma'nosi shuki, xotin nozu karashmani bilsa, qizil rang ipakni kiyadi, yoqishni bilsa ko'k ipakni kiyadi, ya'ni er hurmatiga sazovor bo'lgan kiyim kiyishadi. Maqollarning mazmunidan shuni anglash mumkinki, bunda kiyimning rangi uning ahamiyatini belgilayotir.

6. Oziq-ovqatlar nomlanishida ham rangga aloqadorlik kuzatiladi. Jumladan, nonning bir turi "qara etmak" deb yuritilgan.

7. Hayvon turlarini va ko'rinishlarini farqlashda ranglarning ma'no nozikliklariga katta e'tibor berilgan: oram – to'q qizil va sariq rang orasidagi ot; ajam – qora ot; ug'ar at – peshonasida oqi bor (qashqa) ot; tokuz at – peshonasida tangadek oqi bo'lgan ot yoki qashqa ot; teguzluk – peshonasi oq chovkar ot, boz at – kulrang ot; tig' at – yosh va dumi qizil, tanasi qizil bilan qora orasida bo'lgan qo'ng'ir ot; chilkiy at – to'q sariq ot; chindash at – jiyron ot, qizil gul rangli ot; bo'l at – oyoqlarida oqi bor ot. Peshonasi oq qashqalik otlar ham bo'l ot deb yuritilgan. Turkiy xalqlar chipor otni a:q ot, oq-qora rangli otni ola ot deb ataganlar. Oq va qizil rang orasidagi rangda bo'ladigan har bir hayvonga nisbatan "bo'z" so'zi qo'llangan. Masalan, boz qoj – bo'z, kulrang qo'y kabi. Qadimgi turkiy tilda qoplonni "asri" deb yuritishgan. Shuning uchun ikki rangdagi har bir chiporilarga ham, qoplon rangiga o'xshagani sababli asri deyishgan. "Suqaq" so'zi oq kiyik ma'nosini anglatgan. "Azg'iraq" so'zi quloqlari oq, toshsimon, ba'zi joylari qora bir turli kiyikni bildirgan. Bu jonivor misoli echki, taka suratida bo'lgan. Jonivorlar nafaqat rangiga, balki biror belgisiga qarab ham nomlangan. Masalan, bashil qoj – boshining o'rtasida oqi bo'lgan qo'y; targ'il jilqi – orqasida sepkilga o'xshash oq-qora chizig'i bor hayvonlar; qartol qoj – oq-qora chipor qo'y; bashg'il jilqi – boshi oq mollar; bug'ral qoj – tomog'i oq qo'y; bo'krul at – ikki biqini oq ot; qonur qoj – qo'ng'ir (xira, och jigarrang) qo'y belgisini anglatgan. Kesa turup jorir erdim, Qara, qizil bo'ri kordum. Qatig' jani qura ko'rdum, Qaja korup baqu ag'di. Qo'shiq mazmunidan bo'rilarining qora, qizil singari har xil tusda bo'lishini va shunga qarab farqlanishi va nomlanishini bilib olish mumkin.

8. Rangiga qarab nomlanganlik qushlarga ham xos. Jumladan, ko'ktubulg'an, jangan – faqat boshi oq bo'lgan oq qarg'a, qora qush – burgut, quzg'un – qora qarg'a, ko'mi qizlaq – qizilishton, oq qulon – baliq ovlaydigan oq qush shular sirasiga kiradi. Ammo ranggiga emas, biror-bir ajralib turadigan belgisiga ko'ra rang bilan aloqador nom olgan qushlar ham bor. Aytaylik, oruq qush – oq lochinni; qiz qush – qizil to'sh qushni anglatadi.

9. Rangiga qarab nom olgan hasharotlar ham bor. Kökga kun – ko'k pashsha, mol pashshasi (so'na)ni bildiradi.

10. Daraxt, o'simlik va ekin turlarini farqlash uchun nomlashda ularning ranggiga alohida e'tibor berilganligi seziladi. Jumladan, ertuch ar – qora archa; og'li – qashqarda ekiladigan oq va shirin sabzi turi; chaw ju – tog'larda o'sadigan tanasi, shoxlari qizil daraxt; suzgun – rangi qora, tikanli tog' daraxtlaridan biri; shamusha – sariq yo'ng'ichqa; ko'rkum – za'faron; qara o't – zaharli bir xil o't (u odamni halok qiladi); qaramuq – begona o't; tawilqu – qiziltol daraxti; awilqu – qizil mevali daraxt nomlarini bildirib

keladi. Qizil, sarig‘, arqashib, Jenkin, jashil, juzkashib, Bir-bir keru jurkashib, Jalinuq ani taqlashur. Qo‘shiqda gullarning qizil, sariq turlari obrazlantirilayotir. Ularni ko‘rgan kishi tang qolishi, hayron qolishi ta‘kidlanmoqda.

11. Ranglardan yana mevalarning xilini, navini farqlashda ham foydalanilgan: sarig‘ eruk – o‘rik; qara eruk – olxo‘ri; meshich uzum – bir xil qora uzum, limkan – sariq olxo‘ri navlarini anglatadi.

12. Ayrim joylarning geografik ko‘rinishi, tabiati yoki iqlimiga qarab nom berilgan. Qizil oz – Qashqar tog‘larining biridagi qishloqni; A:q terak (Oq terak) – Yag‘mo shahridagi Ili daryosi ustidagi ko‘prikni; Qizil – Qashqardagi vodiylardan birining nomini; Sajran – Oq shaharni yoki Ispijab – hozirgi Chimkentni; Qara senir – Barsag‘on o‘lkasidagi bir joy nomini anglatadi. Qara orun – qabr degani. Qora orunning asl ma‘nosi qorong‘u yer demakdir. Bu o‘rinda so‘z ma‘nosi ko‘chishi holati kuzatilmogda: Bermish seniq bilar Jalquq tapar qarinqa Qalmish tawar azinniq Kirsqa qara orunqa. Qo‘shiqning mazmuni axloqiy qarashlar bilan sug‘orilgan bo‘lib, unda birovlariga berilgan yoki o‘zing yeganingina seniki, chunki odam qorni uchun xizmat qiladi, qabrga kirgach, qolgan moli boshqanikidir degan o‘git bayon etilishi orqali bu dunyoning o‘tkinchiligi, uning hoyu havaslariga berilish foydasizligi uqtirilayotir.

13. Tog‘- Toshlar nomlanishida “saqaqlig‘ tog‘” birikmasi– qizildan ko‘ra oqlik rangi o‘tkir, qiyig‘i ko‘p toqqa, “ajluq” so‘zi oq achchiqtosh, “qash” so‘zi oq yoki qora, tiniq toza tosh turlariga nisbatan qo‘llanilgan.

14. Qazilma boyliklar, metallar va yoqilg‘ilar turini farqlashda ranglardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ranglar nafaqat mahsulot turini farqlashga, balki xalq boyligi bo‘lgan qimmatbaho qazilma boyliklarning nomini sir saqlashni ta‘minlaydi. Binobarin, xalq orasida qara jag‘ (qora yog‘) – neft; sariq – oltin; oq – kumush; qizil – mis; ko‘k – temir nomini yashirin tarzda ifodalagan. Mahmud Koshg‘ariyning ma‘lumot berishicha, qirg‘iz, yaboqu, qipchoq va boshqalar biror kishiga qasam ichirganda yoki undan biror narsa va‘da olganda, qilichni uning oldiga ko‘ndalang qo‘yib “bu ko‘k kirsun, qizil chiqsin” deyishgan. Bu bilan ahd buzilsa, ko‘k (temir qilich) seni o‘ldirsin-u, qizil (qon)ing chiqsin degan ma‘no uqtirilgan. Shuningdek, tuproq va suv ham ko‘rinishiga, tusiga qarab farqlangan holda ranglarga aloqador tarzda nomlangan. Jumladan, ashu – qizil tuproq, qizil kesakni, suzuk suw – ko‘m-ko‘k tiniq suvni bildiradi. Inson qoni suvdek suyuq va qizil tusda bo‘lgani uchun qadimgi odamlar orasida ko‘pincha qizil suv deb yuritilgan:

Qatunsini chog‘iladi,

Teno‘t begin jag‘iladi.

Qani aqin jag‘iladi,

Bojun suwin qizil sag‘di.[6.321]

Qo‘shiqda real hayotiy voqelik – Tang‘ut bilan Chin orasidagi Qatunsini shahrining aholisi tang‘utlar bilan jang qilgani, bu ayovsiz jangda qonlar suvdek sharillab oqqanligi, bo‘yinlar qizil suv bilan, ya‘ni qon bilan sog‘ilgani tasvirlanmoqda.

15. Osmon jismlari va tabiat hodisalari nomlanishida ham ranglarga aloqadorlik ko‘zga tashlanadi. Unga ko‘ra, Mezon yulduzi – Qaraqum, Mushtariy yulduzi – Qaraqush yulduz nomlari bilan yuritilgan. Qaraqush aslida qirg‘iyga nisbatan qo‘llanadigan nomlardan biridir. Ammo bu nom o‘tmishda o‘g‘uzlar orasida tuya oyoqlarining uchiga hamda tong vaqtida chiqadigan yulduzga nisbatan ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan. Mars planetasining nomi qizillikda misga o‘xshatilib, Baqir soqum deyilgan. Baqir mis deganidir. Qara bulit (qora bulut), aq bulit (oq bulut) birikmalari bulut turlarini farqlashi bilan bir qatorda ob-havoning qanday kelishini izohlab berishga xizmat qilgan. Zero, oq bulut havoning ochiq bo‘lishini, qora bulut esa yog‘ingarchilik yuz berishini anglatgan.

Keldi esin esnaju,

Qasqa tugal usnaju,

Kirdi buzun qasnaju,

Qara bulut ko‘krashur.[4.257]

Qo‘shiqda to‘polon bilan bo‘ron kabi shamol esib, osmonni qora bulutlar qoplagani va bundan odamlarning qo‘rquvga tushgani tasvirlanayotir. Chunki bunday ob-havo dehqon va chorvadorlar uchun hamisha tashvish tug‘dirgan. Shuning uchun “qora bulut” birikmasidan bora-bora g‘am-tashvish, kulfat keltiruvchi obyektini ifoda etuvchi ko‘chma ma‘nodagi qiyosiy obraz sifatida foydalanishgan:

Qara bulutig‘ jel achar,

Urunch bila yel achar.[5.89]

Bu maqolda qora bulut osmonni qoplab olganda uni faqat shamol ketkiza olishi mumkin bo‘lganidek, biror manfaatparast va mansabparastda bitmagan ishni bitkazish uchun pora berish kerakligi aytilgan. Maqolda poraxo‘r, manfaatparast kimsalarga nisbatan o‘ziga xos kinoya mavjud.

16. Tabiat tasviri uchun ranglardan foydalanish an‘anasi qadimiydir:

Japatti jashil jash,

Sawurdi oruq qash,

Tezildi qara qush,

Tun kun uza jurkanur. [4.379]

Mazmuni: Tangri osmonni feruza rangida ko‘m-ko‘k qilib yaratdi va uni uzukka ko‘z qo‘ygandek yulduzlar bilan bezadi. Osmon oq uzuk bo‘lsa, unga qora tosh qora qushdek bo‘lib qo‘nib, chiroy baxsh etdi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi. Ko‘rinyaptiki, qo‘shiqda oq va qora ranglari kecha va kunduzni ifodalab, tazod yaratilgan va shu asosda tabiat tasvirini obrazli tasvirlashga hamda ta‘sirchanlikni oshirishga erishilgan.

17. Davlat ramzlarini belgilashda ranglarning ahamiyati yanada katta. Chunki bunda ranglar orqali har bir davlatning siyosatga munosabati, o'z an'analari, milliy urf-odatlari, e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq mentaliteti aks etadi. Qizil bajraq – qizil bayroq, oq bayroq kabilarning har birida o'ziga xos ma'no mujassam. Ularning ma'nolari mavjud ijtimoiy tuzum qarashlariga mos bo'ladi.

Xulosa. Xullas, keltirilgan misollar qadimdan ranglarga katta ahamiyat berilganligini asoslaydi. Qadimgi insonlar narsalarning joylashish o'rnini (makon), ularning ko'rinishi jihatidan bir-biridan farqlanishini, turini, sifatini, his-tuyg'uga ta'sirini belgilashda ranglar bo'yicha orttirgan tajribalaridan unumli foydalanishgan. Ranglar bilan bog'liq ramzlar inson kechinmalarini ixcham, purma'no, ta'sirchan qilib ifodalashga imkon yaratadi. Ranglar xalq qo'shiqlarida lirik qahramonning his-kechinmalarini, qalb tug'yonlarini, fikr-o'ylarini jonli va ta'sirchan aks ettirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 29-b. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. - Qarshi: "Nasaf" nashriyoti, 1999. – B.170.
2. Kononov A. Semantika svetooboznacheniy v tyurkskix yazikax. / Tyurkologicheskiy sbornik. - M., 1978, s.171-178.
3. Mahmudov Q. Turkiy bayroqlar ramzi. // Fan va turmush. – 1991. - №12. 20-21-b.
4. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. III tomlik. I-tom. – T.: Fan, 1960. –B. 500
5. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. III tomlik. II-tom. – T.: Fan, 1961. – B.428
6. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. III tomlik. III-tom. – T.: Fan, 1963. – B.466.
7. Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna. Historical-Genetic Foundations of Colour Symbolism. **American Journal of Philological Sciences** / Vol. 5 No. 07 (2025): Volume 05 Issue 07 73-77p
8. <https://theusajournals.com/index.php/ajps/article/view/6542#Sec0>
9. MY Ro'ziyeva. Some peculiarities of white colour in uzbek folklore
10. Applied and Fundamental Studies, 277-285